**Qalbay Seytmuratov**

# Seyfulg'abid Majidovning ma`rifiy-pedagogik qarashlari uzluksiz ta`lim tizimida

«Fan»

**U’zbekiston Respublikasi Oliy va u’rta-maxsus ta`lim vazirligi**
**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

**Qalbay Seytmuratov**

# Seyfulg’abid Majidovning ma`rifiy-pedagogik qarashlari uzluksiz ta`lim tizimida

(Uslubiy qullanma)

Toshkent
U’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti
2006

Mazkur uquv qullanmada qoraqalpoq alqning buyuk ma`rifatparvar shoiri S.Majidovning ma`rifiy-jadidchilik faoliyati va ta`lim-tarbiyaviy qarashlaridan uzluksiz ta`lim tizimida foydalanish buyicha ma`ruza matni va uni ta`lim-tarbiya jarayonida qullash yuzasidan uslubiy kursatmalar berilgan. Shuningdek, maktabda qoraqalpoq adabiyoti fanida shoirning adabiy hayoti va ma`rifatparvarlik faoliyati mavzusidagi dars jarayonining namunaviy rejasi, shoir ijodi buyicha uquv yurtlarida utkazilgan kecha bayoni va jadvallar berilgan.

Uslubiy qullanma oliy uquv yurtlari, shuningdek urta maxsus ta`lim muassasalari va maktab uqituvchilari uchun muljallangan.

**Mas`ul muharrir:**

**pedagogika fanlari doktori, prof.U.Aleuov**

**Tahrizchilar:**

**filologiya fanlari doktori, prof. M.Qudaybergenov,**
**pedagogika fanlari nomzodi, dots. A.Tilegenov**

ISBN 5-648-03475-X

© U'**zbekiston Respublikasi FA**
**«Fan» nashriyoti, 2006 yil**.

# Kirish

Mustaqillikning asl mohiyatini teran tushunib, uning qadriga etishda xalqning istiqlol uchun intilish tarixi, ushbu maqsadga erishish yulida yoshlarni tarbiyalash sohasidagi tajriba va g'oyalarni urganish nihoyatda zarurdir. Chunki tariximizga xos bulgan ta`lim-tarbiya mazmunini yaxshi tushinib etganimizdagina bugungi ta`lim-tarbiya muammolarini tulaqonli hal etish mumkin.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida butun Turkistondagi kabi qoraqalpoq ulkasida ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jadidchilik harakati ta`sirida rivojlana boshlagani ma`lum. Jamiyatdagi uzgarishlar: milliy uyg'onish, mustaqillik maqsadidagi kurash xalqning istiqlolga intilishi uchun zarur bulgan g'oyaviy yunalishni belgilab berdi. Natijada Turkiston ulkasi xalqlari, shu jumladan, qoraqalpoq xalqi hayotida ham milliy uyg'onish, ma`rifiy-jadidchilik harakatlari vujudga keldi.

Bunday ijtimoiy-siyosiy hodisalar uz-uzidan paydo bulgan emas. Xalq ma`naviy saviyasi, siyosiy ongining usishida ulug' shoir va mutafakkirlar, davlat arboblari, olimlar va keng ziyolilar ommasining xizmatlari ham katta ahamiyatga ega buldi.

Shunday shaxslarning biri qoraqalpoq xalqining taniqli ma`rifatparvar pedagogi, shoir, yozuvchisi va dramaturgi Seyfulg'abid Majidov (1867-1938) dir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida milliy uyg'onish g'oyalarini kutarib chiqqan, vatan mustaqilligi uchun fidoiylik kursatgan ma`rifatparvar-jadidchilar: Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitrat, Sufizoda, Siddiqiy-Ajziy va Chulponlar uzbek xalqi uchun qanday buyuk xizmatlar qilgan bulsa, Seyfulg'abid Majidov ham qoraqalpoq xalqi uchun shu darajada fidoiylik kursatgan ma`rifatparvarlar sirasiga kiradi.

Turkistonda XIX asr oxiri-XX asr boshlarida vujudga kela boshlagan ma`rifatparvarlik-jadidchilik harakati millatning uyg'onishida katta ahamiyatga ega buldi. Bu harakatni yuqori baholagan U'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: «U'zbek olimlarining kuch-g'ayrati bilan... XIX asr oxiri XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi... hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir»[1].

Milliy uyg'onish davri ijtimoiy-siyosiy harakatida «sahna orqasida turgan» jadid maktablari murabbiylari, ziyoli, shoir-ma`rifatparvarlarning qushgan ulushlari ayniqsa katta buldi. Chunki, milliy uyg'onish davridagi xalqning ma`naviy qadriyatlari bugungi kunda yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash, xalqning tarixiy xotirasini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham milliy uyg'onish davrida jadid maktablari dunyoviy bilimlar asosida uquvchilarning savodxonligini ta`minlash bilan bir qatorda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, bilimlari va tushuncha-larini

[1] Karimov I.A. U'zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent.: U'zbekiston, 1998.-527 bet.

rivojlantirishni ham nazarda tutar edi. Bu uz navbatida chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati ildiziga bolta urardi[2].

Mustamlakachilikda yashashni millatni holdan toydiruvchi holat deb bilgan S.Majidov xalqning boshqalar jilovida bulishi uzini-uzi boshqarmasligi, nodonlik, g’oyasizlikning oqibati deb hisoblar edi. Shuning uchun u maktab, maorif ishini yoshlarni mustaqillikka erishishga undovchi vosita deb tushundi. U’sha davr siyosiy sharoitini yaxshi anglab etgan S.Majidov milliy uyg’onishni jonlantirib, xalqni g’aflat uyqusidan uyg’otish uchun birinchi navbatda ta`lim berish, ma`rifat ishlarini yangidan tashkil qilish zarurligini taklif qilgan edi («Inayat bulisga» she`riy xati).

Chunki, jadid maktablarining ochilishi xalqning ongida uzgarishlar sodir bulishi, fikr uyg’onishini ta`minlovchi omillardan biri ekanligini S.Majidov yaxshi tushungan edi. Uning ma`rifiy-jadidchilik va ta`lim-tarbiyaviy qarashlari, ayniqsa, milliy uyg’onish davrida yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash haqidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Jadidchilik harakati va jadid mutafakkirlari faoliyatini yuqori baholagan U’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «...milliy uyg’onish g’oyasini ruyobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bulib qoladi»[3], degan edi. Milliy uyg’onish davrini urganishga undovchi bu fikr jadidchilik harakati va uning namoyandalarining ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy-madaniy qarashlari haqida tadqiqotlar olib borishning g’oyada dolzarb ekanligini kursatadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida U’zbekistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati tarixi, uning namoyandalari yaratgan adabiy, falsafiy, pedagogik merosni urganish sohasida I.M.Muminov, Sh.Rajabov, H.P.Vohidov, B.Qosimov, I.Tursunov, D.H.Ziyaeva, A.A.Jalolov, G.Mahmudov, B.Ergashevlar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Bundan tashqari XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi jadid maktablari tarixi va milliy uyg’onish davri ma`rifatparvarlarining ta`lim-tarbiyaviy faoliyatlari haqida S.R.Rajabov, J.A.Urumbaev, U.Aleuov, Z.F.Mirtursunov, A.A.Boboxonov, A.Fattaev, M.Maxsumov, S.Nishonova, J.Hasanboev, A.Muhammedjonov, A.M.Xudayqulov, N.A.Irgasheva, Z.B.Ahrorova, D.A.Ahatova va boshqalar muhim tadqiqotlar olib borganlar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadid ma`rifatchiligining taniqli namoyandasi S.Majidovning serqirra ijodiy faoliyati adabiyotshunoslar Q.Ayimbetov, S.Axmetov, Q.Bayniyazovlar tomonidan urganilib, uning asarlari tuplandi va chop etildi.

---

[2] U’zbekistonning yangi tarixi.1-kitob.-Toshkent.: Sharq. 2000.-260 bet.
[3] Inson baxt uchun tug’iladi. U’zbekiston Prezidenti Islom Karimovning hikmatli su’zlaridan.-Toshkent.: Sharq, 2001. 36 bet.

Biroq, J.A.Urumbaev va U.Aleuovlarning ilmiy ishlari[4] hamda «Qoraqalpog'istonning yangi tarixi»[5] kitobida jadid maktabi, jadidchilik harakati haqida ma`lumotlar berilgan bulsada, S.Majidovning jadidchilik faoliyati, uning maorif-madaniyat sohalarida olib borgan ishlari bilan keng uqituvchilar ommasini metodik tomondan qurallantirish ushbu qullanmaning maqsadi bulib hisoblanadi.

## S.Majidovning ma`rifiy-pedagogik qarashlari

**(«Pedagogika tarixi» fani uchun ma`ruza matni)**

**Reja:**

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qoraqalpog'istondagi madaniy-tarixiy sharoit va jadidchilik harakati.
2. S.Majidovning hayoti va ma`rifiy-jadidchilik faoliyati.
3. S.Majidovning didaktik qarashlari.
4. S.Majidov nazarida yoshlarning odob-axloq va ma`naviy tarbiyasi.
5. S.Majidov yoshlarning jismoniy va nafosat tarbiyasi haqida.

### Adabiyotlar


Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma`rifat, fidoyilik. Toshkent.: Ma`naviyat, 2002. 398 bet.

Mahmudov /. Jadid adabi**yo**tida milliy istiqlol mavzui. Toshkent.: U'zbekiston, 1999. 108 bet.

Ma'jiytov S. Shug'armalaru. No'kis` Qaraqalpaqstan, 1992. 200 bet.

Paxratdinov !. XIX a'sirdin' aquru XX a'sirdin' basundag'u qaraqalpaq a'debiyatu tariyxu. No'kis` Bilim, 1998. 208 bet.

Urumbaev J. Ocherki istorii shkolu v Karakalpakstane. Nukus: Karakalpakstan, 1974. 540 str.

Xolbaev S. Jadidchilikdagi milliylik va milliy masala echimiga oid ayrim mulohazalar.//U'zbekistonda millatlararo munosabatlar tarixidan. Toshkent.: Universitet, 1998. 26-32-betlar.


[4] Urumbaev J. Ocherki istorii shkolu v Karakalpakstane.-Nukus, Karakalpakstan, 1974.-540 s; !ле7ов %. №ара3алпа3станда т1лим–т1рбиялы3 ойларды4 31липлеси7и 81м ра7ажланы7ы (!ййемги д17ирден баслап ХХ-1сирди4 е0-жылларына шекем).-Н5кис, Билим, 1993.-503 бет.

[5] №ара3алпа3станны4 жа4а тарийхы. №ара3алпа3стан XIX 1сирди4 екинши ярымынан XXI 1сирге шекем.-Н5кис` +ара=алпа=стан, 2003.-554 бет.

Xudayqulov A.M. Prosvetitel`skaya deyatel`nost` djadidov Turkistana (konets XIX nachalo XX vv). Kand.diss.Tashkent, 1995. 146 str.

Seytmuratov №, Aleu'ov U. A. Avloniydin' ta'lim-ta'rbiyaluq ko'z-qaraslaru ha'm S.M1jiytov. //Vestnik Karakalp.otdeleniya AN RUz. Nukus, 2003. №6.-B. 334-335. (qoraqalpoq tilida)

Seytmuratov №. S.M1jiytovtun' ta'rbiyaluq oy-pikirleri. //Vestnik Karakalp. otdeleniya AN RUz. Nukus, 2004. №3-4. 162-163- betlar. (qoraqalpoq tilida)

Seytmuratov №.S. M1jiytovtun' psixologiyaluq ko'z-qaraslaru. //Vestnik Karakalp. otdeleniya AN RUz.Nukus, 2004. №3-4. 161-162 bet. (qoraqalpoq tilida)

Seytmuratov Q. S.Majidovning pedagogik qarashlari.//«Xalq ta`limi». 2005. №1. 130-132-betlar. (uzbek tilida)

Seytmuratov Q. Xalq uyinlarining tarbiyaviy ahamiyati. (Atoqli qoraqalpoq pedagogi va shoiri S.Majidov ijodi misolida) Toshkent, «Uzluksiz ta`lim» 2005. №2. 87-92 bet. (uzbek tilida)

Aleuov U, Seytmuratov Q. S.Majidov yoshlarning estetik tarbiyasi haqida. //«Xalq ta`limi» 2005. №5. 130-132-betlar. (uzbek tilida)

## 1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qoraqalpog'istondagi madaniy-tarixiy sharoit va jadidchilik harakati

XIX asr oxiri XX asr boshidagi qoraqalpoq xalqining madaniy-tarixiy hayotida ma`rifat va ta`lim-tarbiya masalasi uziga xos xususiyatlari bilan namayon bulib, bu davrda yoshlarni milliy ozodlik ruhida tarbiyalash asosiy vazifa buldi. Bu masalaning yuzaga kelishi XIX asrning sunggi choragidagi va XX asr boshidagi ulkada joriy bula boshlagan ijtimoiy uzgarishlarga, milliy uyg'onishga, jadidchilik harakatlariga borib taqalar edi.

Qoraqalpog'istonda Rossiya xukumronligi urnatgash (1873) mustamlakachilikning harbiy-administrativ boshqarish tizimi urnatildi. Jipslashgan qoraqalpoq xalqi Amudaryoning ung va chap qirg'ogiga bulinib, bir-biridan bulak bulgan ikki boshqaruv hokimiyatiga tegishli buldi. Lekin chor Rossiyasining mustamlakachilik maqsadlariga qaramay, ulkada kapitalistik qatnashlar urin olib, ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari osha boshladi. N.I.Ia`minskiy uslubidagi turkiy xalqlarni ruslashtirishni nazarda tutgan maktablar tashkil qilina boshladi. 1874 yili Petro-Aleksandrovskiyda (Turtkulda) ikki bilim yurti va ikki mahalliy rus maktabi (1878 y) ochildi. Chor Rossiyasi padshosi siyosiy mahbuslarni surgun qilgan joylardan biri-Muynoq tumani bulib, bu erda XX asr boshida 230 rus oilasi yashagan. Ular uzlarining erkinlik, demokratiya, padsho Rossiyasiga norazilik qarashlari bilan ajralib turgan.

Mustamlakachilikdagi tarixiy sharoit qoraqalpoq ziyolilari orasida ham xalqning ma`naviy dunyosini uzgartirish, ularni uyg'otish zarur. Shu yul bilan chor Rossiyasi zulmidan qutulish mumkin, degan muommani yuzaga keltirdi. Ular bu muommani ma`rifiy ishlardan boshlash zarurligini, ma`rifat yordamida xalqning milliy ongini uyg'otib, uzligini anglashni shakllantirish muhimligini yaxshi tushundi. Buni jadid maktablari va jadidchilik harakati amalga oshirishi mumkin ekanligini payqagan qoraqalpoq ziyolilari XIX asr oxiri XX asr boshida yangi usul-jadid maktablariga intildi. Qoraqalpog'istonda jadidchilik shakllanishining uch omili: panisla-mizm, tatar jadidchiligi va demokratik ma`rifiy g'oyalar (Kunxoja, Ajiniyoz, Berdaq, Utesh va h.) asosida yuzaga kelganligi ma`lum.

Ma`rifatchilik g'oyasidan etishib chiqqan jadidchilik milliy uyg'onish uchun sharoit tayorlab, xalqni dunyo madaniyati yutuqlari bilan xabardor etishga qodir edi. Natijada, ular ijtimoiy-siyosiy ongliligi takomillashib, uz oldilariga katta vazifalar: milliy uyg'onishni, milliy ozodlikni nazarda tutib harakat qila boshladilar. Ma`rifatparvarlikning yuqori bosqichi tarzida shakllangan jadidchilik harakati bilim sohasini isloh qilishni, mustaqillik uchun kurashning asosiy vositasi deb hisobladi.

1905-1906 yillarda Xiva shahrida «Yosh xivaliklar» harakati yuzaga kelib, bu harakat Xiva xonligiga tegishli Qoraqalpog'iston hudida (Xujayli, Shumonoy, Qung'irot) ham katta kuchga ega buldi. Ushbu davrda Amudaryoning ung qirg'ogiga tegishli Petro-Aleksandrovskiyda (Turtkulda) jadidchilik uyushmasi ijtimoiy pedagogik harakati «Hayriya jamiyati» (1907 y) tuzildi.

Qoraqalpog'iston hududida tashkil topgan bu ikki jamiyat siyosiy partiyalarning (bol`shevik, menshevik) dasturlarini urganib, xalq huquqining poymal qilinayotganligini tahlil qildi. Maorif va fan sohasini yuksaltirib, xalqning milliy ongini uyg'otish zarurligini nazarda tutdi. Lekin bu ishlar chor mustamlakachilariga yoqmadi. «Yosh xivaliklar» harakati siquvga olindi. Rahbarlari ulimga mahkum etildi, ba`zilari qamoqqa tashlandi. N.Sholikorov, P.Yusupov va J.Sultanmurodovlar qoraqalpoq ulkasiga, boshpona topish uchun, qochib kelishdi va «Yosh xivaliklar» harakatini Xiva shahridan Turtkulga (Petro-Aleksandrovskiyga) kuchirishga majbur buldi. Bular endi milliy istiqlol harakatlarini Amudaryoning ung qirg'og'idagi qoraqalpoq jadidchilari bilan hamkorlikda yurgiza boshlashdi.

Jadidchilik birinchi va ikkinchi rus inqilobi oralig'ida, ayniqsa avj oldi. Ijtimoiy-pedagogik harakatlar ta`sirida yangi usul maktablar kuplab yuzaga keldi. 1907 yili Turtkulda «Hayriya jamiyati» tashabbuskorligida ochilgan jadid maktabidan tashqari Xujayli, Qung'irot va boshqa shaharlarda ham yangi usuldagi maktablar ishga tushdi. Xujaylidagi Avazjon xujaning hovlisida ochilgan ozarboyjonlik Yusuf Ahmedov tashkil qilgan jadid maktabi (1909-1916 y) alohida diqqatga sazovar buldi.

1909-1913 yillarda Qung'irotda faoliyat kursatgan Muhammadsharif Sufizoda tashkil qilgan jadid maktabi, 1911 yili Qung'irotda Q.Ahmedov tomonidan ochilgan, Qozon shahridan taklif etilgan tajribali pedagog Axmad Zokir Botirov uqituvchilik qilgan yangi usul maktabi, 1912 yili S.Majidov ochgan jadid maktabi yoshlarga bilim va siyosiy ong shakllantirishi bilan alohida kuzga tashlandi. Jadidchi shoir Qozi Maulik tomonidan Chimboyda tashkil qilingan yangi maktab bolalarni bepul ovqatlantirib ta`lim bergan. Shu shaharda Abbos Amantaev uqituvchilik qilgan yangi usuldagi maktab 1912 yildan e`tiboran un yil ichida 400 ga yaqin mahalliy bolalarni savodli qilib, ma`naviy shakllanishini ta`minlagan.

XX asr boshida Qoraqalpog'iston hududida 20 ga yaqin jadid maktablari faoliyat kursatib, yoshlarni aniq bilimlar berish orqali siyosiy-ma`naviy tomondan tarbiyalashga, xalqning mustamlakachilik-dagi hayoti og'ir kechayotganligini tushuntirishga, ularni milliy mustaqillik ruhida shakllantirishga harakatlar ishlangan.

Ushbu davrda Qoraqalpog'istondagi mustaqillikka erishish harakatining faol ishtiroqchilaridan biri Qoraqum eshonning nabirasi Muhammad Idrisning (1869 yili tug'ilgan) xizmati katta buldi. U qushni turkman elidagi Junaydxon bilan birlashib mustaqillikka erishishni qonun asosida konstitutsiyaviy yul bilan amalga oshirishga intildi. Lekin tinchlik bilan mustaqillik qulga kiritilmasligini payqagan Idris eshonni quzg'olon kutarmoqchi deb oq padsho (1916 y) hibsga oladi. Bu haqida (shoir mulla Abdulla) «Qoraqum eshon dostoni»da: «Odil bulib suramadi urising» degan siyosiy-ijtimoiy talablar kutarilib chiqqon edi.

Jadidchilar ta`sirida 1916 yilgi U'rta Osiyo buylab kutarilgan xalq quzg'olani qoraqalpoq ulkasida ham katta talablar bilan namoyish etildi. Xalqning milliy uyg'onishini takomillashtirib, ularning uz aro birlashishiga, aholining milliy tuyg'usining jonlanishiga ta`sir utkazdi.

Jadidchilar mustaqillikka erishish yulini tanlash masalasida inqilobdan oldin ikki guruhga bulinib ketgan edi.

Birinchisi-milliy ozodlikni konstitutsiyaviy yul bilan olishga harakat qilgan, milliy ozodlikni islohot orqali amalga oshirishga intilgan «ung» qonat jadidchilik guruhi edi (Idris eshon, Abboz shoirning dastlabki davrdagi faoliyati, Qozi Mauluk, Qidirniyoz, Sidiq Tuqpon ug'li, Jaliy maxsum, Barliqboy bulis va h.). Bularning ba`zilari keyin «bosmochilar» deb nomlandi.

Ikkinchisi-milliy ozodlikni qulga kiritishda inqilobdan umid qilgan, ma`lum darajada bol`sheviklar bilan aloqaga ega «sul» qanot jadidchilar harakati hisoblandi (S.Majidov, Qulmurod shoir, A.Musaev, Jangaboy shoir, Abdiqodir, Umar, Qazaqboy, Qudoybergan, Seydabulla va h.). Lekin, bu «ung» va «sul» jadidchilik harakatining

ikkala guruhi ham xalqni milliy ozodlikka intiltirib, bir maqsadga erishishning ikki xil yuli bilan harakat qildi.

Inqilobdan sung Qoraqalpog'istonda jadidchilik suzini termin sifatida qullanish biroz susaydi. Buning sababi «sul» guruhdagi jadidchilar noiloj vaqtincha bol`sheviklarga birlashib, uzlarini ushbu tashkilotning vakillari deb hisoblab, mustaqillik g'oyalarini shuro hukumati tarkibida xizmat qilib yurib, yashirincha payt poylab davom ettirdilar. Ular uz xalqining madaniy-ma`rifiy ishlariga, ayniqsa e`tibor qaratishdi. 1918 yili Amudaryo bulimining viloyat xalq ta`limi bulimi tuzildi. Mahalliy ziyolilar talabi asosida maorif sohasi rivojlana boshladi. Maktablar ochila boshladi. 1923 yilda tashkil qilingan «Savodsizlikni tugatish jamiyati» (ODN) viloyatdagina emas, tuman va qishloqlarda ham uz bulimlariga ega buldi.

1924 yilda qoraqalpoq xalqining taniqli ma`rifatparvar shoiri S.Majidovning faol ishtirokida arab alifbosidagi yozuv qaytadan kurib chiqilib, islohotlashgan yangi yozuv yaratildi. Shu imloda «Erkin Qoraqalpog'iston» gazetasi (1924) tashkil etildi. S.Majidov ruznomaning mas`ul kotibi etib tayinlandi.

## 2. S.Majidovning hayoti va ma`rifiy-jadidchilik faoliyati

S.Majidov 1867 yili Qozon guberniyasining Kuyik qishlog'ida tug'ilgan. Oilaviy sharoit tufayli 1881 yili otasi Abdulmajid Qoraqalpog'istonga kuchib kelgan vaqtda Seyfulg'abid yaxshi bilimga ega 14 yoshli yigitcha edi. U, dastlab Qung'irot okrugidagi Talliq buyidagi Qulen bulisning, keyin Qurazbek bulisning kotibi bulib ishladi. El rahbarlarining yordamchisi sifatida faoliyat yuritib, xalqning ijtimoiy hayotini yaqindan tushuna boshladi. Ulug' shoir Berdaq bilan uchrashadi.

XX asr boshida u oilasi bilan Qung'irot shahriga kuchib keladi. Bulajak shoirning rus tilini yaxshi bilganligi matbuotdan dunyo xabarlarini uqib turishiga imkon yaratdi. I.Gasprinskiy asos solgan jadid maktabi, jadidchilik harakati tug'risida axborotlarga ega buldi. U nashr ettirgan «Tarjimon» gazetasini uzliksiz uqib, Qoraqalpog'istonda ham jadid maktablari zarurligini tushundi. Shoirning ta`lim tizimini isloh qilish g'oyasini kutarib chiqqan va Chimboy shahrida bulislik jadid maktabini ochishni tavsiya qilgan «Inoyat bulisga» nomli she`riy maktubini yozishi maorif sohasida katta ahamiyatga ega buldi.

S.Majidov Qung'irotga kelgan (1909-1913) taniqli uzbek jadidchi-shoiri M.Sufizoda bilan tanishadi. U tashkil qilgan jadid maktabiga ug'li Rahimni uqishga beradi. 1912 yili S.Majidovning uzi ham Qung'irotda jadid maktabini ochadi.

Jadidchilik harakati, milliy ozodlik g’oyalari, inqiloblar tug’risida tushunchalarga ega S.Majidov xalqning rus mustamlakachiligida yashashga norozilik kayfiyatini yaxshi payqadi. Milliy istiqlolga erishish yulida «sul» qanot jadidchilik harakatini qullab, bol`sheviklarning va`dasiga ishondi. Yangi hukumat tarkibida milliy mustaqillikka erishamiz deb quvonib qarshiladi. Shu bois shuro hukumati tarkibida xizmat qildi. 1920 yili partiya safiga a`zo buldi. Jadid maktabi buyicha boy tajribaga ega S.Majidov 1921 yili Qung’irot okruglik xalq ta`limi mudiri bulib tayinlandi. Kuplab maktablar ochishni tashkil qildi. Jadid maktabida ta`lim olgan yoshlarni uqituvchilar tayorlaydigan kurslarga yuborib, Xujayli internatida faoliyat (1922-24 yy) kursatgan Hamza Hakimzoda Niyaziy bilan yaqin aloqada buldi. Uning xalq ta`limi sohasida fidoyilik bilan qilgan mehnati uchun 1924 yili Xorazm xalq respublikasi «Mehnat qizil bayroq» ordeni bilan mukofotlandi.

1925 yilda S.Majidov Xujayli okrugi buyicha xalq komissariyati inspektori etib tayinlanadi. Ilm va madaniyatga intiluvchi qoraqalpoq xalqiga maktab darsliklari, gazeta-jurnallar juda zarur edi. S.Majidov viloyat miqyosida utkazilgan kurik tanlovda qoraqalpoq tilidagi tung’ich maktab darsliklarini yozish huquqini qulga kiritdi. Natijada 1925 yili Toshkentda uning muallifligida qoraqalpoq xalqining tarixida birinchi: «Alifbe», «U’quv kitobi», «egedelar (kattalar) savodi» kabi maktab darsliklari chop etildi. Bulardan tashqari yuqori sinf uquvchilari uchun «Qoraqalpoq adabiyoti majmuasi» (Turtkul, 1928 y) qullanmasini chiqarishga erishdi.

S.Majidov 1926 yildan Qoraqalpog’iston avtonom viloyat xalq ta`limi bulimida ilmiy xodim lavozimida ishlab, qoraqalpoq tili va uni uqitish uslublari buyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Bunda tuplagan ilmiy xulosalari asosida viloyat uqituvchilarini qayta tayorlash kurslarida dars bergan. Lotin olifbosiga utish buyicha «Butun ittifoq turkshunoslarning I s`ezdi» (1926 y) munosabati bilan tashkil qilingan majlislarda ilmiy ma`ruzalar uqidi.

1928 yildan Qoraqalpog’iston maktablari lotin olifbosida chop etilgan darsliklardan foydalana boshladi. Bu sohada ham S.Majidovning xizmatlari katta buldi. U yosh muallif ijodkorlarga maktab uchun darslik, dasturlar tayorlash buyicha uzining boy pedagogik tajribalari asosida maslahatlar berdi. Ular bilan hammualliflikda lotin imlosida «Qoraqalpoq tilining grammatikasi» (I-bulim, 1928), «Qoraqalpoq tili darsligi» (Turtkul, 1930), «Qoraqalpoq viloyatidagi savodsizlikni tugatish maktabiga dastur» (M., 1931), «Qoraqalpoq tilining grammatikasi» (M., 1932) va h. maktab darsliklari va dasturlarini yozdi. Shuningdek, usha davrdagi yosh olim Q.Ayimbetov bilan B.ergalievlarning «Savodli bul» va «Chuntak alifbosi» (1928) darsliklariga ilmiy maslahatlar berib, chop etilishiga mas`ul buldi.

Lotinlashtirish uz natijalarini berdi. 1929 yili birinchi madaniy harakatlarda 6 mingdan ziyod, 1930 yili ikkinchi harakat esa 15 ming kishining bilim olishiga sababchi buldi. 1936 yilga kelib xalqning savodxonlik darajasi 48 foizga etdi.

S.Majidov ma`rifatchi-shoir, pedagog-olim bulish bilan birga qoraqalpoq adabiyotining proza, dramaturgiya janrlarining asoschilaridan biri hisoblanadi. U «Suyun va Sara», «Qulmurat», «U'n tuqqiz» nomli romanlari, «Bog'dagul», «Dars», «Yigit buldik», «Oxirgi ogoh», «Ernazar olakuz», «Gulim-Tayman», «Qora yuraklar» nomli p`esalarini yozdi. Bulardan tashqari yuzdan ortiq asosiy yunalishi ma`rifatni, ta`lim-tarbiyani nazarda tutgan siyosiy-ijtimoiy va bolalarga bog'ishlangan didaktik qushiqlari, hikoyalari bor. Shoir rus mumtoz shoirlari va sharq mutafakkirlarining bir qator asarlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qildi.

30-yillarda iqtisodiy qiyinchiliklardan tashqari ma`naviy -madaniy tomondan ham xalqqa og'irlik kuchaydi. Yoshlar tarbiyasi masalasida ancha muommalar yuzaga keldi. Hukumat ilgarigi madaniy meroslardan voz kechib, dinni, diniy bilimga ega odamlarni chetlatdi. Insonning ma`naviy olamiga zarar keltiruvchi ateistik tarbiyani jonlantirdi. Tarbiya sohasidagi yangi nazariyalar eskiga suyanish oqibatida mustahkamlanar edi, bu e`tiborga olinmadi. Hattoki bolalarni uz ota-onasiga qarshi («chin kommunist») qilib tarbiyalash yuz berdi. Ijtimoiy hayotdagi qiyinchiliklar shaxsga sig'inish davrida yanada avj oldi. Bu hodisalar S.Majidovni ham og'ir holatlarga duch keltirdi. Bir tomondan ba`zi kimsalarning undagi ijod borasidagi yutuqlarni kura olmaslik yuzaga keldi. Ikkinchi tomondan elning haqiqiy mustaqilligini nazarda tutgan S.Majidov qizil imperiyaning xalq erkini cheklab, siqib quyganligiga norazilik kayfiyatini sezdirdi. «Qoraqalpoq» sh`erida kommunistik tuzimning mustamlaka-chilik siyosatini yaqqol anglab, shuro davlati urnatilgan bilan:

«Shavkatga, shonga aldanma,
Tuldir izidan qolma,
Ishim bitdi deb uylama,
Bitmagan ish kup, qoraqalpoq».

deb yozib, haqiqiy mustaqillik hali qulga kiritilmaganligini, buni «tuldir»ish uchun xalqning oxirigacha kurashishi zarurligin tushuntirdi. Natijada shoir bol`sheviklar tomonidan turli zarbalarga duchor buldi. U'g'li viloyat ijro qumitasi instruktori Rahim Majidov bilan birgalikda «inqilob dushmanlari-millatchilar» deb atalib, gazetalarda birin-ketin maqolalar e`lon qilindi. Oqibat S.Majidov ug'li Rahim bilan «Sovet hokimiyatiga qarshi ung-Troitskiy blokka qatnashuvchilar» deb ayblanib 1937 yili «xalq dushmoni» sifatida qamoqqa olinib, qatil etildi.

Shunday vaziyatda yashab hayot kechirgan, S.Majidovning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida chuqur urin egallagan milliy mustaqillik g'oyalari, uni pedagog sifatida

ta`lim-tarbiya sohasida katta burilish yasab, yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash muommasini kutarib chiqishga muyassar etdi.

### 3. S.Majidovning didaktik qarashlari

XIX asr oxiri XX asr boshidagi milliy uyg'onish davri ta`sirida ilmli, bilimli bulish bilan istiqlol uchun kurashishni uzaro bog'liq deb tushungan S.Majidov ma`rifat yordamida bu maqsadga erishish yuli tezlashishini yaxshi tushundi. Shu bois yoshlarning ta`lim olishiga va uning mazmunini sifatli qilish zarurligiga katta ahamiyat berdi. «U'qi, ol bilim, nodonlikdan qoch, kurash, maqsadinga etib olasan» deb ijtimoiy hayotning takomillashish asosida ilm, fan turganligini nazarda tutib, hayot qiyinchiliklarini engib, dunyo, jamiyat qonunlarini bilib, ozod bulishing, «qutilmaging uqishdandir» dedi. Yoshlarga qarata: «tolibi bul bilim-hunar»,-deb ilm va hunar egallashni barobariga talab qildi. «Hunar xotiradan uchmasligini, asl hunar yuqolmasligini» va bilim bilan hunarni-texnik tushunchalarni biri ikkinchisini tuldiruvchi, bog'lanishga ega deb, hunar deganda usha davrdagi texnik bilimlarni nazarda tutgan. Ta`limni politexnik bilimlar bilan bog'lab olib borishni, ilm asosida hunarni, texnikani boshqarish amalga oshishini, politexnik ta`lim usha davrdagi yoshlar uchun eng zarur ta`lim sohasi ekanligini tushuntirdi. Bu borada maxsus: «Hunar-bilim», «Hunar» nomli sh`erlarini yaratdi. Hunarmand mehnati yaratuvchilik, ijodiy xususiyatlarga ega deb bilgan S.Majidov yoshlar hunarni-politexnik bilimlarni rivojlantirib, takomillashtirishi, ular: «turli hunarlar chiqarib, tukkan sari» ijodiy takomillashish yuz berishini ta`qidladi. Hunar egalari elning farovonligini ta`minlaydi. «Hunar tukib yarqiragan, chin dildan xizmat qilgan odamlar» elning kelajagi uchun «yorug'ligini qushib turadi» deb, yoshlarning politexnik ta`lim egallashiga, ayniqsa katta ahamiyat berdi. Buning davr talabi hisoblanishini tushuntirdi va qaysi bir narsani ilm, nazariy tomondan tuldirsa, hunar uning amaliy jihatini yuksaltirishini:

Ishda ilm kerak, ilmda hunar,
Ilmsiz ish unmas, u darrov sunar.

deb hunar bilan ilmni birga rivojlanuvchi nazariy va amaliy tomonlar deb baholadi. Shu tushunchalaridan kelib chiqib S.Majidov bilim va hunarni (politexnik ta`limni), xalq hayotining farovonligini ta`minlovchi omillar deb hisobladi.

Bilim va ilmni yoshlarga puxta va mazmunli urgatish uchun maktabda uquvchilarning bilimni uzlashtirish uslublariga e`tibor berish kerak degan S.Majidovning pedagogik qarashlarining katta qismini ta`lim berish uslublari haqidagi fikrlari egalladi. S.Majidov «Alifbe», «U'qish kitobi», «egedelar (kattalar) savodi» va boshqa darsliklarini yozganida, uz davridagi didaktik tamoyillarining eng mukommallarini mohirlik bilan urganib, uqituvchilar bilan uquvchilarning xohish-ehtiyojlarini qondirishga harakat

qilgan. «Alifbe» tafakkur olamida ma`qul kurilgan tovush usuli bilan yozildi. Bu uslub suz uslubiga nisbatan dastlab murakkabdek kurinsa ham, foydali ekanligi sinalgan, deb darslikning zamonaviy talab darajasida tuzilganligini qayd etdi. Muallif darsliklar yordamida uquvchilarning nafaxat savodliligini oshirishga, shu bilan birga ongini, siyosiy bilimliligini takomillashtirishga intilgan.

Shoir maktab darsliklarining yozilish tamoillari qanday bulishini ustozlik amaliyotida chuqur anglab etgan edi. U «Alifbe»ga yozgan suz boshisida: «U'qish kitobini yozish degan suz bu xalqning buzilmagan qoraqalpoqning nutqiday etib yozish, yozilgan misollar qoraqalpoq hayotidan olingan bulishi, demak tili qoraqalpoqcha bulgani kabi mazmuni ham qoraqalpoqqa xos, bolalarga tanish turmushdan olinishi lozim. Bizning maqsadimiz ham shu»,-deb ta`lim berish ishining hayot bilan bog'liq, xalqqa yaqin bulishini nazarda tutdi va xalqning fonetikasiga, suz talaffuzlariga mos keladigan 25 harf tanladi.

«U'quvchining harfni urganishi, harfni bir-biri bilan bog'lay olishi naqadar zarur bulsa, uzlashtirgan darsini (harfini) yoza bilishi ham shunday zarur. Bolaning quliga chiziqli daftar berib, satr chizig'i buylab yozishni kursatib, yozuv yulini keng qilib, ikki satr orasida bitta satr qoldirib qalam bilan yozishga urgatilsin. Qalamni tug'ri ushlab stolga yaqiniroq, tik utirib yoza bilishga xabardor bulish foydali», deb ham kursatmalar bergan.

Pedagog uzining didaktik qarashlarida bolalarning mustaqil ish olib borishiga, ayniqsa e`tibor qaratgan. Mustaqil ish bilimni samarali uzlashtirishni shakllantirishning asosiy vositasi deb hisoblab, shunday dedi: «U'qituvchilarning xotirasida saqlashi, bajarib turishi shart vazifalardan biri-bolani zeriktirmaslik, yaxshi muomalada bulib uqitish, harflarni urgatgach, ularni bir-biriga qushib, turli xil suzlar tuzishni imkon qadar bolaning uziga ayttirib, uziga toptirib urgatish. Bola unitib yoki uzini yuqotib tuxtalsa, dastlab uzlashtirilgan, uqigan joylarini kursatib, yodiga tushirish kerak, unda ham natija bermasa, javobini aytmasdan yaqinlashtirib, qaytaldan aytib, yodiga tushirish, xullas bolaning topqirligini oshirish shart. Bu ishlar oldin biroz og'ir bulib tuyulsa ham, keyinchalik bolaning tez savod chiqarib, tushinib etishiga sabab buldi»,-deb yozadi.

Pedagogning tushuntirishiga bolalarning fikr yuritishi aniq kurgazmali harakatga ega. Ular kurganlari asosida uylab, mulohaza yuritadilar. Shuning uchun «U'quvchi har bir uqigan suzini tushuna bilishi zarur. Buni har suzga tegishli narsani rasmi bilan kursatib, tushuntirilib berilsa, yanada yaxshi buladi. U'qigan kitobida rasm bor bulsa ham, bu bilan cheklanmasdan, maktabda, sinfda turli rasmlar ildirib quyib, bolaga kursatilib turilmasa, bolaning tushunchasi mustahkam bulmas»,-dedi va shu orqali maktabdagi ta`limning kurgazmalilik tamoyilini yanada boyitib, uqituvchi uchun dars

jarayonini ijodiy rivojlantirish zarurligini, darsni qushimcha ma`lumotlar bilan tuldirib, kurgazmalilik tamoyilini keng qullashni talab etgan.

Pedagog dars jarayonida utilgan materiallarni puxta uzlashtirib olishini ta`minlash choralarini izlab, uqituvchiga darsning uquvchilarga tushinarli bulish tamoyilini yodda tutishini vazifa qilgan. U bu borada: «Har bir darsni uqib chiqqandan keyin darsning mazmuniga bolalarning qay darajada tushunganini surash kerak. Darrov javob bera olmasa, keyingi darslarda javob berishga hozirlash shart»,-deb bilimning samarali uzlashtirilishi uchun shogirdlarni mustaqil izlanib, tushunchalarini chuqurlashtirib borishiga ayniqsa e`tibor bergan.

Pedagog maktab uquvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida bolalarni rag’batlantirish usulining katta ahamiyat kasb etishini, bundan ustozlar keng foydalanishi lozimligini eslatgan. «Xafalikning boisi» she`rida uquvchilarning dars urganishida uzaro musobaqalashishi yaxshi natijalar berishini, ustozning «Bu kun Karima uzdi» deb maktabning boshqa bolalarning ibrat olishi uchun namuna qilib kursatishi, sinf uquvchilarining darsga qiziqishida samara berishini tushuntirgan.

S.Majidov «Alifbe»ga yozgan didaktik kursatmalarida: «Bolalarga uqituvchilarning ta`siri tegadi. U’quvchi uqituvchilarning odob-axloq, yurish-turushlari, muommalaridan urnak olib, shunday bulishga harakat qiladi. U’qituvchilar bolalar oldida g’oyat ehtiyot bulishlari lozim. Axloqsizlik bilan suzlamasliklari, qupol muomala qilmasligi, xususan bolalar oldida xushyor bulishlari shart», deb ustoz bulish odob-axloqiga, ustoz va shogirdlar urtasidagi munosabatga alohida tuxtalib, uqituvchi faqat bilim, xat-savod urgatibgina qolmay, yoshlarni uzining ibratli xulq-atvori bilan odob-axloqqa tarbiyalovchi asosiy shaxs deb tushuntirgan. Bilim berish bilan tarbiyani uzaro bir-biri bilan bog’liq. Biri ikkinchisini tuldiruvchi jarayon deb, usha davrdagi eng ilg’or ta`lim berish tamoyillarini qullab-quvvatlagan S.Majidovning bu qarashlari «Alifbe», «U’quv kitobi», «egedelar (kattalar) savodi» darslik-larining mazmunida yorqin aks etgan.

Shunday qilib, S.Majidovning didaktik qarashlarida har bir darsning hayot, amaliyot bilan bog’liq bulishini, mavzuning bolalardagi bilim darajasiga mos kelishini, darsni qiziqarli, ijodiy tashkil qilinishini, uquv materiallarining oddiydan murakkablikka, noma`lumdan ma`lumga utishi zarurligini, darsning ilgarigi mavzular bilan bog’lab urganilishi, ta`limning izchil, ketma-ket berilishi, kursatmali va tushinarli bulishi, ta`lim va tarbiyaning uzviy birligi, dars jarayonida uquvchiga xos xususiyatlarni inobatga olish va boshqa tamoillarni tavsiya qilganligini kuramiz.

Pedagog uzining didaktik qarashlarini yoshlar ta`limni uzlashtirishining psixologik asoslari bilan bog’liq holda yanada rivojlantirishga erishdi. U, tuzgan darsliklari bilan uquv dasturlarida ta`limning samarali uzlashtirilishi uchun uquvchilarning psixologik

uziga xosliklarini inobatga olib, shunga mos ta`sir kursatilishi zarur, deb ta`qidladi. Yoshlardagi aql, bilim va tushunchalarning shakllanishi undagi ruhiy jarayonlar bilan, ayniqsa e`tiborli bulishi bilan chambarmas bog'liq ekanligini bildirdi. U'tkir zehn (diqqat), nafaxat ta`lim jarayonida, balki ijtimoiy hayotda odamlarga kup foyda berishini tushuntirdi.

Diqqat psixik jarayonning boshqa jihadlarini, ya`ni sezgi, idrok qilish, xotira, tafakkur, xayol, irodaviy harakatlarning asosiy boshlovchisi hisoblanishini, bu insonning uziga xosliklarini oydinlashtirishni ta`minlaydigan hodisalar ekanligi shoirga ma`lum edi. Agar diqqat past bulsa, bunday odamning «bee`tiborlikdan ishi yurishmaydi», diqqatsizligidan hayotdagi ishlari murakkablashib qiynaladi. Chunki ogoh, xushyor bulmaslik bilimi va tajribalarining etarli tuplanishiga ziyon etkazadi.

Ma`rifatparvar yoshlarning bilim qobiliyatini ta`minlovchi hodisalardan biri- tafakkur va undan kelib chiqadigan insondagi aql, farosat tushunchalari ekanligini alohida inobatga olgan. Narsa va hodisalarni bilish insondagi aqlga bog'liq, qanday faoliyat bulmasin uni «tushunish uchun fahm kerak, tafakkur kerak», dedi. Inson tafakkuri qiyosiy xayoli yordamida yakkalikdan umumiylikka tomon tahlil qilib, hukm chiqarish qobiliyatiga ega. Chunki, inson «aqli butinligi, zehnliligi va boshqa» yutuqlari bilan shaxs sifatida ajralib turadi.

Mutafakkir bolalarning qiziquvchanligining bilishda va darslarni puxta uzlashtirishida hissasi katta ekanligini nazarda tutib, «U'qish boshqa, uyin boshqa» she`rida: «Ixlosli yosh bilim olar» deb, buning darsni oson uzlashtirishning garovi ekanligini aytadi. Bu fikrlarini («Bolalar») yanada rivojlantirib, qiziqishning psixologik asoslarini isbotlashga intildi. Qiziqib uqish shogirdlarning butun vujudini ta`lim urganishga jalb qilishini: «Ihlos bilan uqish bilimni kungilga obdon tuqib olishini» yuzaga keltirishini tushuntirdi.

Shoir nafaxat ta`lim berishda, balki yoshlarning axloqiy tarbiyasini samarali olib borish uchun ham, ularning psixologik xususiyatlariga tayanib ish yuritish kerak, shunda tarbiya kungildagidek amalga oshadi deb, tarbiyaning barcha jabhalarida yoshlarning psixologik jihatiga e`tibor berishga undadi.

## 4. S.Majidov nazarida yoshlarning odob-axloqi va ma`naviy tarbiyasi

Ma`rifatparvar S.Majidov tarbiyaning ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega ekanligini chuqur payqadi. Shu bois yangi tuzum urnatgan paytda uning yoshlarga beradigan tarbiyasi, «odob-axloqi qanday bulishini» jiddiy uylab, tahlil qildi va tarbiya xalqning milliy an`analariga asoslanishini nazarda tutdi. Tarbiya insondagi barcha

fazilatlarning asosi ekanligini, tarbiya tug’ri yulga quyilmasa, faqat yoshlar urtasidagina emas, balki insonlar jamoasida insonparvarlik, odob-axloq, bir-biriga munosabatdagi izzat-hurmat, intizom  buzulishini ta`kidlab: «Tarbiyadur ishning boshi, boshqa yulning yuq tug’risi»,-deydi.

Pedagogning fikricha: «Bu yurtning kelajagi bolalar». Ularda tarbiyani yoshligidan shakllantirish kerak. Inson yoshligida olgan tarbiya orqali hayotda uz urnini topadi, xalqqa nafi tegadigan shaxs bulib etishadi. «Agar bolalar kelajakni tug’ri tushunmaydigan, nodon bulib voyaga etsa, bunday yoshlari bor xalqning eli kurkamlashmas, fikri uyg’onmas», deb tarbiya maqsadi yoshlarda istiqlol haqidagi fikrlarni uyg’otish, mustaqillik uchun kurashuvchi shaxs sifatida shakllantirishdan iboratligini kursatdi.

Yoshlar ongli tarbiya kurib, voyaga etsa, «tarbiyasi tuliq bulsa, istiqlolning mazasini sezadi», el mustaqilligi mazmunini, uning zarur ekanligini tushunadi, bunga erishish yulini tug’ri tanlay oladi, deb mustaqillik maqsadiga erishish yulini bexato anglashi uchun yoshlarni ma`naviy siyosiy etuk qilib tarbiyalashning  ahamiyatiga alohida e`tibor qaratilishini eslatib utadi.

Shoir yoshlarning ma`naviy-axloqiy shakllanishida mehnat tarbiyasiga alohida e`tibor qaratdi. Inson uz oldiga quygan maqsadiga mehnat tufayli erishishini, «kungil qumsagan narsalar mehnat qilmay topilmasligini» tushuntirdi. Shuning uchun bolalarni yoshligidan mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash zarur. Mehnat qilishdan qochish- yoshlar hayotni notug’ri tushunishiga olib kelishini, insoniy fazilatlarni yaxshi uzlashtirmaslikka grifdor etishini eslatib: «Ishyoqmas, yalqovlar buzuq yulga tez kirar»,-deydi.

Mehnatning maktab tarbiyasidagi urniga katta ahamiyat bergan S.Majidov «Alifbe», «U’qish kitobi» darsliklariga kiritgan «Ota vasiyati», «Xalq sinagan bolalar», «Ziyrak bola», «U’jar bilan odobli bola», «Ota bilan bola», «Oltini un ikkiga aylantirish» va boshqa hikoyalarida bolalarni kichik yoshdan maktab ichidagi va atrofidagi turli ishlarni ishlatib, shuningdek oiladagi kundalik kichik hayotiy topshiriqlarni bajartirib borish orqali mehnat kunikmalarini oila va maktabga bog’liq holda amalga oshirish zarur deb hisoblaganligini kuramiz.

Pedagogning fikricha, xalqning tinch va farovon hayot kechirishi el farzandlarining uz vatanini sevishiga bog’liq. U «Harib (chorshab) eding» she`rida vatanparvarlik tuyg’usi qoraqalpoq xalqining qadimdan qon-qoniga singib ketgan tarbiya ekanligini, ularning insoniylik tabiatiga mujassamlashganligini tushuntirdi.

Mustaqillikning g’animatligini anglamay, istiqlolga intilmay yashash-bu qurqoqlik. Qaysi el mustamlakada yashasa, bu ularning qurqoqligi tufayli, vatanparvarlik tushunchalari hali talab darajasida bulmaganligi, «qullikda ezilgan elning, odamining bari qurqoq» deb, xalq mustaqilligi uchun intilishdan qurqmaslikni, buning haqiqiy

vatanparvarlik hisoblanishini tushuntirdi. Shu g’oyalarni amalga oshirish uchun hozirgi paytda esa «Bilim bilan mardlik darkor»ligini, bu vatanparvarlik tarbiyasidagi eng zarur hislatlar ekanligini tushuntirdi.

Shoir yaratgan darsliklarida va kup sonli nasihat she`rlarida yoshlarning axloqiy tarbiyasida insonparvarlik, dustlik, hamjihadlik, xalqlar dustligi, nutq madaniyati va boshqa fazilatlarning ham ahamiyati katta ekanligini tushuntirdi. Ayniqsa, yoshlarning estetik tarbiyasiga alohida e`tibor berdi.

## 5. S.Majidov yoshlarning estetik va jismoniy tarbiyasi haqida.

Marifatparvarning fikricha, estetik tarbiya bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantiradi, kelajakka intilishini orttiradi, undagi yaxshi tuyg’ularni harakatga keltiradi, orzularini tug’ri yunaltirib, shu yulda zavqlanishini jonlantiradi. Shoir milliy bayramlarning, urf-odat va an`analarning yoshlarni guzallik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatiga alohida e`tibor berib, «Alifbe», «U’qish kitobi», «egedelar (kattalar) savodi» darsliklarida va tuzgan uquv dasturlarida bularga etarlicha urin berdi. Ayniqsa, yoshlarning estetik tarbiyasida badiiy adabiyotning xizmati ulug’ hisobladi. Bolalarning estetik zavq olishi uchun avvalam bor guzallik ob`ektining ichki mazmuniga, sung shakliga baho berishni eslatib, badiiy adabiyot xalq manfaatini kuylashi, shoirlar xalqqa maqul-«manzur yuldan yurishi» lozimligini, «fuqaroning manfaati uchun» xizmat qilishi kerakligini, ayniqsa shoirlar e`tiboriga «tug’ri bulsin yozgan xating (she`ring)» deb ijodkorlarning uz asarlarida hayotiy haqiqatni yozishini, real voqealarni bayon qiluvchi badiiy asarlargina xalq sevib uqiydigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega, estetik sezgilarni rivojlantiruvchi asarlar hisoblanishini tushuntirdi. Shularni inobatga olib, pedagog uz darsliklariga jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlaridan, fol`klor namunalaridan kuplab matnlar kiritgan edi.

Shoir yoshlarning estetik tarbiyasida musiqa san`atining ahamiyatiga ham e`tibor berdi. Uning uzi etuk sozanda bulib, xalq musiqalarini dutorda mahorat bilan ijro etgan. «Bog’dagul» dramasiga un beshga yaqin xalq musiqalarini tanlab olib, uning ohongiga mos keladigan she`rlar bitganligi ham buning isbotidir. Pedagogdagi bu xususiyatlar uzi tashkil qilgan Qung’irotdagi jadid maktabiga (1912) ashuladan dars kiritishiga va buni sinfdan tashqari mashg’ulotlarda olib borishiga sabab bulgan edi.

S.Majidov yoshlarning chaqqon, epshil, etuk tushunchaga va jismoniy guzallikka erishishida bolalar uyinining va ulardagi jismoniy madaniyatning shakllanishiga ham e`tibor qaratdi. «Alifbe» darsligida «Jamoa bulib uynaydigan uyinlar» degan mavzu berilib bunda: «shullik», «qasharmon tup», «tupli tayoq», «ang’aloq tup», «havo tup»,

«uchta qaqchimay», «shuy tashlamoq», «iyt quyriq», «taqia tepmak», «aqsoq qorg’a» va boshqa qatar harakatli uyin turlarini keltirgan.

Harakatli uyinlar bola tanasiga, sezgi a`zolariga ta`sir kursatib, ularning tug’ri usishiga, jismoniy baquvvat bulishiga yordam beradi. Ayniqsa, harakatli uyinlar orqali bolalarning uz xatti- harakatlarini nazorat qilishi rivojlanib, ishning bir shaklidan ikkinchisiga tez tushib ketish kunikmalari yuzaga kelishi, yangi muhitga tez moslashib, uziga yuklatilgan vazifalarga jon kuydirishi, qiyinchiliklarni engib, havfli vaziyatlarda uzini yuqotmaydigan bulib shakllanishi S.Majidovga ma`lum edi.

Ma`rifatparvarning fikricha, bola yoshligidan uyin jarayonida qay darajada aql bilan ish qilib, topqirlikka, harakat izchilligiga ega bulib uynasa, ulg’aygandan sung turmushdagi ishlarida ham bu muvaffaqiyatlarining foydasi tegizadi. «U’yinda uzgan- chinda uzib, chin uyinda yutqazmaydi» deb, uyinning bola kelajagidagi ahamiyatini ta`kidlaydi.

Pedagog uzining «U’qish boshqa, uyin boshqa» deb nomlangan she`rida bolalarning vaqtida uynab, vaqtida maktabga borishini, uyinning uz me`yorida bulishi zarurligini ta`kidlaydi.

S.Majidov bolalar vaqtida uxlab, vaqtida ovqatlanishining jismoniy jihatdan sog’lom usishida foydasi katta ekanligini ham inobatga oldi. «Kup emak bilan kup uyqu, ikkovi hech ham kelishmas» deb, ovqatni ortiq iste`mol qilish, me`yoridan kup uxlash salomatlikning buzilishiga olib kelishini aytgan. Inson uchun eng kerakli narsa jismining salomatligi. Jismoniy salomatlik uning baxtli yashashining, hayotiy yutuqlarining garovi, chunki: «Buyuk aql, teran mushohada sog’lam bulgan tanda bor», deb yoshlarning aqliy faoliyati, muvaffaqiyatlari asosida ularning tana sog’ligi yotishini ta`kidlaydi. Pedagog bolalarga jismoniy tarbiya berish haqidagi fikrlarini «Alifbe», «U’qish kitobi» darsliklarida yanada davom ettirgan. Kitob «Tula boy», «Salomatlik teran boylik», «Sog’liqni saqlang», «Boylik» nomli hikoyalardan iborat bulib, ularda ustoz tomonidan uquvchilarga jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida tushuncha beriladi. Ayniqsa, uquvchilarning maktab gigienasi, undagi qoidalar haqida tug’ri tushunchalarga ega bulishini kuzlab: «Uyda ishlaganda» nomli hikoya tuplamiga kiritilgan. Bunda uquvchi dars tayorlaganda yorug’lik chap tarafdan tushishi, stolda yozuv yozishda utirish tartibi va boshqalarda bolaning shaxsiy gigiena qoidalari nazarda tutilib, qimmatli maslahatlar berilgan.

Shunday qilib, biz S.Majidovning pedagogik qarashlarini urganish jarayonida ta`lim va tarbiyaning barcha jabhalari bir-biriga bog’liq, mujassamlashgan holda olib borilishi, yoshlarni istiqlol g’oyasi yulida tarbiyalashda samaralilikning poydevori deb hisoblaganligini kuramiz.

**«S.Majidovning ma`rifiy-pedagogik qarashlari» mavzusidagi ma`ruza matnidan uzluksiz ta`lim tizimida foydalanish uchun uqituvchilarga uslubiy kursatmalar**

Ma`ruza matni ushbu kundagi barkamol avlod tarbiyasini shakllantirayotgan mustaqil Vatanimizdagi uzluksiz ta`lim tizimida qullanishi yoshlarni aqliy va ma`naviy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega ekanligini ishimiznng kirish qismida eslatgan edik. Endi shularning isbotini kurib chiqishni nazarda tutib, ma`ruza matnini uzluksiz ta`lim tizimida qullanishi uchun uqituvchi-ustozlarga uslubiy kursatmalar berishni lozim deb topdik.

Uzluksiz ta`limning boshlang’ich sinflarida ayniqsa 1-sinfda **«Alifbe»ni urganish** davrida yuqorida suz qilingan «S.Majidovning didaktik qarashlari» paragrafini samarali foydalanish mumkin. Bunda harflarni bug’inga bulib, ketidan suz, gap qurab uquvchilarning urganishi uchun oson bulishini nazarda tutib tuzish tajribalarining (ap, apa, a, p, a va h.) hozirgi davrda ham e`tiborga loyiqligi, uqituvchilar uchun uslubiy tajriba tarzida shu kunga qadar davom etib, uz ahamiyatini yuqotmaganligini, S.Majidovning usha davrdagi uqituvchilarga tavsiya qilgan uqitish uslublarini hozirgi birinchi sinflardagi «Alifbe»[1] darslarida ham faol qullanish mumkin ekanligini inobatga olish zarur. Ayniqsa ma`ruza matnining ushbu paragrafidagi S.Majidov qullab-quvvatlagan va uning «Alifbe»ga yozgan kirish suzida ifodalangan XX asrning 20-yillaridagi uqitish printsiplari, jumladan, dars materiallari uquvchilarning yosh xususiyatiga, ulardagi bilim-tushuncha darajasiga mos bulishi, darsning qiziqarli tashkil qilinishi, bilish noma`lumdan ma`lumga, osondan qiyin va murakkablikka utishi, uquvchilarning mustaqil bilim olishlarini tashkil qilish, uquv materiallarining ilgarigi mavzular bilan bog’liq bulishi, ta`limning izchilligini saqlash, darsning rasmlar yordamida kursatmalilik bilan olib borilishi va ijodiy tashkil qilinishi, bilimni puxta uzlashtirib, darsning tushinarli bulish tamoyillari hozirgi davrda uzbek tilidagi R.Safarova va b., qoraqalpoq tilidagi E.Berdimuratov va b. muallifligidagi «Alifbe»ni uqitish jarayonida ham katta ahamiyatga ega.

Ma`ruza matnidan urin olgan S.Majidov qarashlarida bolalarning jismoniy madaniyati va estetik tarbiyasi masalalarini esa **V sinfdagi «Adabiyot» darsida** berilgan xalq bolalar uyinlari: «Tulkichak», «Avalaman, duvalaman», «Ha tuyalar, tuyalar» mavzularini urgangan paytda uquvchilarga qushimcha keng qamrovli tushunchalar berish uchun foydalanish zarur. Chunki S.Majidovning «Alifbe»sida berilgan «Oshiq uyinlari», «Guruh bulib uynaydigan uyinlar» va boshqalarning tarbiyaviy ahamiyati batafsil tushintirilgan. Shu materiallarni uqituvchilar yuqorida qayd etilgan xalq uyinlari buyicha

---

[1] Р.Сафарова, М.Иноятоав, М.Шокирова, Л.Шерматова. Алифбе. Тошкент. «Манавият». w00r; Бердимуратов Е, Тимашев Н, Хожамуратова №. !лифбе. Н5кис` Билим, w000.

dars utgan paytda tula foydalanishi va ularning uzlari harakatli uyinlar, shuningdek, uning tarbiyaviy ahamiyati tug’risidagi tushunchalarini yanada chuqurlashtirishi, natijada uquvchilarga keng qamrovli bilimni shakllantirish mumkin.

Bulardan tashqari ushbu sinfdagi «Tez aytishlar», «Maqol-matallar» mavzusini, **VII sinfda «Adabiyot» darsligida** berilgan: «Topishmoqlar» va «Tez aytishlar» mavzusini utgan paytda uquvchilarga S.Majidov tomonidan «Alifbe»ga kiritilgan (47, 69-betlar) tez aytishlar, topishmoqlar bilan maqol-matallarni va ma`ruza matnidagi «S.Majidovning didaktik qarashlari» paragrafida tahlil qilingan materiallardan uquvchilarning tez aytishlarida foydalanish orqali talaffuz mahoratini va tovushlarni tug’ri ifodalash, suzlardagi ketma-ketlikni saqlash va ovoz chiqarish a`zolarini takomillash-tirish maqsadida hozirgi darslarda ham qullanilsa buladi. Ayniqsa, XX asr boshidagi maqol-matallar va topishmoqlar uquvchilarning mantiqiy rivojlanishini yuksaltirishdagi xizmatini uqituvchilarga taqqoslash usuli bilan tushintirishi ayni foydali hisoblanadi.

Shuningdek, **V sinfdagi «Adabiyot» darsligida** S.Majidovning 1925 yilda «Alifbe»ga kiritilgan «Turt mavsum», A.Dabilovning «Yoz mavsumi» peyzaj she`rlari berilgan. Ushbu mavzularni urganish paytida uquvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash nazarda tutilgan. Demak, uqituvchi bu erda ma`ruza matnidagi S.Majidov yoshlarning estetik tarbiyasi haqidagi materiallarini foydalanish mumkin.

